

**NAIM KARIMOV. JADID ADABIYOTI VA TEATRIGA DOIR IZLANISHLAR
SAMARASI (“JADID TEATRI” KITOBI MISOLIDA)**

Go‘zal Qlicheva

*Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich
magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyotshunos olim Naim Karimovning Jadidchilik adabiyotidagi faoliyati va izlanishlari yoritib berildi. Ayniqsa, Turkistonga teatrning kirib kelishi va bu sohaga jadid adabiyoti vakillarining qo’shgan hissasi, ularning dramatik asarlari asosiy g‘oyasi, mazmun-mohiyati doirasida adabiyotshunos olimning ilmiy qarashlari atroflicha bayon etildi. Shuningdek, Naim Karimov o‘zbek jadidchilik adabiyoti rivojida o’ziga xos o’ringa va muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlab o’tildi.*

Kalit so’zlar: *Jadid teatri, drama, Naim Karimov, Behbudiy, Cho’lpon, Hamza, «Turon» jamiyati, adabiyotshunoslik, tahlil.*

Annotation: *This article covered the work and research of literary scientist Naim Karimov in the literature of Jadidism. In particular, the introduction of the theater to Turkestan and the contribution of representatives of jadid literature to this area, the main idea, content and essence of their dramatic works the scientific views of the literary scientist in the framework of a comprehensive statement was. It was also noted that Naim Karimov has a special place and importance in the development of Uzbek jadidism literature.*

Keywords: *Jadid theater, drama, Naim Karimov, Behbudiy, Chulpan, Hamza, Society “Turon”, Literary Studies, analysis.*

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti va uni rivojlantirish yo’lida o’z maqsadida sobit turgan, haq so’zni aytishdan hayiqmagan zabardast adabiyotshunos olimlarimiz talaygina (Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, Cho’lponlarni eslang!), shu o’rinda ularning yo’lini davom ettirgan, ustozlarining nomini oqlagan, ular haqida qimmatli ma’lumotlarni adabiyotshunoslikka olib kirgan adabiy tanqidimiz vakillari ham bir talay. Ulardan biri o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi mustahkam o’rniga ega bo’lgan filologiya fanlari nomzodi, professor Naim Karimovdir. Uning ilmiy izlanishlari, asosan, XX asr o‘zbek adabiyotini o‘rganish, jadid adiblari - Cho’lpon, Fitrat, Hamza ijodi bilan bog‘liq edi.

Naim Karimov 1932 yil 12 dekabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1955 yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) filologiya fakultetini tamomlagan. 1990 yildan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida bo‘lim mudiri bo‘lib ishlagan. 1993 yilda unga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi, 1994 yilda esa professor ilmiy unvoni berilgan. 1996 yilda O‘zbekistan Respublikasi fan arbobi bo‘lgan.

Naim Karimov XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti xususiyatlarini ochish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U shu davrdagi o‘zbek adabiyoti va uning yirik

vakillari ijodini milliy g'oya mezonlari asosida o'rghanish ishini birinchilardan bo'lib boshlab bergen.

Naim Karimov jadid adabiyoti vakillaridan Cho'lpon, Fitrat, Hamzaning ilmiy faoliyati, ijodi bilan bog'liq ko'p jildli akademik nashrlarini tayyorlash va nashr etishda ishtirok etgan. Ularning hayoti va faoliyatiga doir ko'pgina haqiqatlarni ochishda muhim ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, Naim Karimov O'zbekiston ma'rifatparvarlar jamiyati raisi (1999 yildan), Mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi va «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi kengashi raisi (1999 yildan), «Qatag'on qurbanlari xotirasi» muzeyi direktori (2002 yildan) bo'lib faoliyat yuritgan.

Naim Karimov ijodiy faoliyati jamiyatda, shuningdek, adabiy muhitda holat yaxshilasha boshlagan davrga to'g'ri keladi. O'z FA Til va adabiyot institutida qariyb yetmish yillar samarali mehnat qilgan. Naim Karimov izlanuvchan va o'ziga xos ilmiyestetik qarashlarga ega munaqqid va adabiyotshunosdir. Uning bu xususiyatlari Hamza, Cho'lpon, Oybek, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda ijodi va faoliyatiga oid tadqiqotlarida yorqin ko'rindi. XX asrdagi buyuk shoir, yozuvchilar hayoti, faoliyatini asarlarining yozilish sababi, tarixi, muallifning atvori, tabiat, turmush tarzi, muhiti-yu davrasi bilan bog'liq holatda gavdalantirish Naim Karimov kabi ijodkorlardan boshlangan, desak adashmagan bo'lamiz. Naim Karimov har bir tadqiqotini aniq faktlar bilan yozadi, o'quvchi rad qila olmaydigan dalillar keltiradi. Albatta, uning orqasida tinim bilmas izlanishlar yotibdi.

Shu o'rinda adabiyotshunos olimning "Jadid teatri" kitobi haqida to'xtalsak. Ushbu kitob 2016-yilda "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi bosmaxonasi tomonidan bosilib chiqqan bo'lib, XX asrning birinchi choragida o'zbek xalqining milliy uyg'onishi va yuksala boshlashida muhim rol o'ynagan jadid teatriga bag'ishlangan. Risola ikki bo'limdan iborat bo'lib, Kirish, Jadid teatri namoyandalari, Jadid teatrining vujudga keldishi va shakllanishi, Jadid teatrining vujudga kelish omil va manbalari, Jadid dramaturgiyasidan namunalar kabi boblardan iborat.

1913-yilda Turkistonda «Turon» jamiyati tashkil etilganligi, shu yosinda teatr san'ati maydonga kelganligi, o'sha vaqtgacha professional teatri bo'limgan Turkistonda teatr san'ati vujudga kelish, shakllanish va ma'lum darajada rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi barcha adabiyot ixlosmandlariga ma'lum.

"O'zbek adabiyotida uzoq davrlar mobaynida she'riyat yetakchilik qildi. Hatto xalq teatri asarlari yaratilib, tomoshabinlarda sahna san'atiga qiziqish paydo bo'lidan keyin ham milliy teatrning maydonga kelishi XX asrning 10-yillariga qadar cho'zildi. Holbuki, Yevropa mamlakatlarida teatr san'ati allaqachon vujudga kelgan, xalqning madaniy-ma'rifiy darajasini belgilovchi omil bo'lgan bir paytda Turkistonda mazkur san'atning hali tug'ilmaganligi g'oyat achinarli hol edi. Shuning uchun ham Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy jiddiy ijodiy faoliyatini milliy teatr asarini yaratishdan boshladi", - deydi olim jadid teatriga olibir

maqolasida. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2011 yil 29-sonida boshilgan “O'zbek teatrining to'ng'ich asari” maqolasida esa, “Padarkush” ta'sirida o'tgan asrning 10-yillari o'nlab sahna asarlari maydonga keldi, dramaturglar safi Nasrulla Qudratilla, Abdulla Qodiriy, Abdulla Badriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy hisobiga kengaydi. Ko'p o'tmay, ular safiga Hamza, Fitrat va Cho'lpon singari zabardast dramaturglar kelib qo'shildilar, deb ma'lumot beradilar.

Bundan tashqari ushbu kitobdan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan jadidchilik harakati mustabid sho'ro tuzumi davrida aksilinqilobiy millatchilik harakati sifatida qoralanib kelinganligi, lekin bu harakat va uning qatnashchilari faoliyatining mustaqillik arafasida, ayniqsa, mustaqillik yillarida o'rganilishi uni tom ma'noda Turkistondagi milliy uyg'onish harakati sifatida baholash imkonini bergenligi, jadidlar, turli sabablarga ko'ra, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotgan mustamlaka Turkiston xalqlarini ma'rifatlashtirish va shu yo'l bilan mustabid tuzum asoratidan xalos bo'lish uchun bu harakatni boshlaganliklri, xalqni ma'rifatlashtirishning asosiy vositalaridan biri, maktab va maorif, matbuot va adabiyotdan tashqari teatr ham ekanligini chuqur anglab yetganliklari haqida ham yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Kitobning “Kirish” qismida “teatr” so'zining kelib chiqishi, teatr san'ati uzoq tarixga egaligi, bu san'atga xos boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv (konflikt) kabi unsurlarining paydo bo'lishi insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ovchilik, dehqonchilik, shuningdek, ajdodlar ruhiga sig'inish kabi diniy marosim va bayramlar bilan bevosita bog'liqligi, teatr miloddan avvalgi V asrda Yunoniston, Hindiston, Turonda vujudga kelib, sekin-asta jamiyat madaniy va maishiy hayotining tarkibiy qismiga aylanib borganligi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlakachilik zulm ostida yashayotgan o'zbek xalqini mudroq

holatdan uyg'otish, uning ongiga erk va hurriyat g'oyalarini payvand qilishda maktab va maorif, matbuot va badiiy adabiyot bilan birga teatrning roli ham katta ahamiyat kasb etganligi haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan.

Jadid teatri namoyandalari bobida esa muallif Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin Shukrulla, Abdulla Badriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G'ulom Zafariy, Cho'lpon kabi tearchilik janriga yuksak hissasini qo'shgan jadid nomoyondalarining hayoti va faoliyati aks ettirilgan.

Jadid teatrining vujudga kelishi va shakllanishi bobida Jadid teatrining

shakllanish bosqichlari: jadid teatrining vujudga kelishi, jadid teatrining shakllanishi, jadid teatrining yakunlanishi haqida asosli ma'lumotlar kiritilgan.

Jadid teatrining vujudga kelish omil va manbalari bobida jadid teatri manbalari trixiy-madaniy sharoit, milliy teatrning dastlabki ko'rinishlari, qardosh teatrlar tajribasi, 1914 yil 27 fevralda tug'ilgan o'zbek milliy teatri qardosh va xorijiy xalqlarning teatr madaniyati erishgan tajribalar va yutuqlar bilan birga birinchi navbatda milliy teatr an'analariga tayangan holda shakllanib, parvoz qilganligi,

mashaqqatli ijodiy yo'lni sharaf bilan bosib o'tganligi, na shunday ijodiy parvozni jadid teatri qaldirg'ochlari boshlab berganlklari haqidagi faktlar mujassamlashgan.

Jadid teatrda ko'tarilgan asosiy muammolar bobida jadid teatri spektakllarining janr va turlari, jadid teatrining asosiy muammolari: ma'rifatli avlodni tarbiyalash, milliy va ijtimoiy zulmga qarshi kurash, xotin-qizlar huquqlarini tiklash, giyohvandlikka, eskiran urf-odatlarga qarshi kurash ekanligi haqida tarixiy, real ma'lumotlar bilan keltirilgan.

Ikkinci bo'lim , jadid dramaturgiyasidan namunalar bobida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi", Nusratulla Qudratulla, Hoji Muinning "To'y" , Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov", Abdulla Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Hoji Muin Shukurulla "Eski maktab, yangi maktab",

" Ko'knori", "Mazluma xotin" kabi dramatik asarlari bilan tanishish mumkin.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Naim Karimov tomonidan yozilgan jadid adabiyoti va teatriga oid risolalar, ilmiy maqolalar, XX asrning birinchi choragida o'zbek xalqining milliy uyg'onishi va yuksala boshlashida muhim rol o'ynagan jadid adabiyoti, ularning asl maqsadlari, g'oyalari aks etgan dramatik asarlari, teatrga bag'ishlangan bo'lib, hozirgi yoshlarning, umuman xalq ommasining milliy urf-odatlar ruhida, Vatan va xalqqa hurmat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, fidoyilik, milliy taraqqiyot g'oyalari ruhida tarbiyalanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/naim-karimov-najot-adabiyotdadir>.
2. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-ochmagan-ovoz.html>
- 3.Jadid teatri . «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent – 2016
- 4.Naim Karimov. O'zbek teatrining to'ng'ich asari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2011 yil 29-sonidan olindi.
- 5.O'zbekiston yangiliklari. Rasmiy sayt www.gazeta.uz/oz/
- 6.N.Karimov. Istiqlolni uyg'otgan shoir. T.: Ma'naviyat, 2000